

XITOIY LISONIY MANZARASIDA BAXT VA FALOKAT  
(BAXTSIZLIK) ATTRAKTI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7332782>

*Valiyeva Noiba Abbosxanovna*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*“Xitoy filologiyasi” kafedrasida doktoranti*

*[naying1564@mail.ru](mailto:naying1564@mail.ru)*

*Annotatsiya.* Mazkur maqola doirasida xitoy xalqining zamonlar osha an'anasi, qadriyatlari va urf-odatlarida o'z aksini topgan frazeologik birliklarda baxt va baxtsizlikni (falokat) ifodalashi va bu ikki bir-biriga qarama-qarshi konseptining birga kelishi tahlil qilingan. Batx- ulush, baxtsizlik esa ulushsiz qolish, yoxud birini jiddiy, achchiq kabi o'xshatishlar ifodalasa, ikkinchisini yengil, shirin kabilarda ko'rish mumkin.

*Kalit so'zlar.* Kognitiv tilshunoslik, konsept, frazeologik birliklar, baxt, baxtsizlik, ulush, falokat.

*Annotatsiya.* This article discusses happiness and unhappiness (catastrophe) in phraseological units reflected in the time-honored traditions, values and customs of the Chinese people and the coming together of these two opposing concepts are analyzed. Luck is a share, and misfortune is the absence of a share, or one can be represented by similes such as serious and bitter, and the other can be seen as light and sweet.

*Keywords.* Cognitive linguistics, concept, phraseological units, happiness, unhappiness, share, disaster.

## KIRISH

Baxt masalasini nafaqat til yoki madaniy, balki kengroq, falsafiy va umumbashariy ma'noda ko'rib chiqsak, bir tomondan, uni antik davrga oid bir qancha doimiy tarkibiy qismlarini alohida ta'kidlash kerak, bir tomondan esa inson mavjud ekan ma'lum bir konseptni mental ongi orqali tobora chuqurroq va kengroq mazmun bilan boyitib borishini ilmiy ishlardan ham ko'rishimiz mumkin.

Kognitologiya fanida asosiy e'tibor inson idrokiga qaratilgan, nafaqat kuzatiladigan harakatlar, balki ularning ruhiy holati ham tekshiriladi tasvirlar (ichki tasvirlar, modellar), belgilar, strategiyalar bilimga asoslangan harakatlarni yaratuvchi shaxs, ya'ni insonning kognitiv dunyosi uning xatti-harakati va faoliyati bilan o'rganiladi; shakllanadigan tilning faol ishtirokida davom etadi har qanday inson faoliyatining nutqiy fikrlash asoslari – shakllar uning motivlari, munosabati, natijani bashorat qiladi.

So'zning yashirin mazmuni tilshunoslikda, psixologiya, madaniyatshunoslik, falsafa, sotsiologiya va h.k.larda ham, ya'ni tafakkurni, dunyoqarash va madaniyatni ko'rib chiquvchi ijtimoiy fanlarning eng muhim masalalaridan biridir. Ushbu turli ijtimoiy fanlardagi umumiy kalit tushuncha konsept deb ataladi<sup>1</sup>. Kontsept o'zida antropotsentrizm tendentsiyalarini aks ettiradi, chunki u o'rganilayotgan ob'yekt - shaxsning subyektiv ruhiy dunyosi mazmuni bilan bog'liqdir.

Xitoy xalqi qadimdan turli udumlar, urf-odatlar va ilohiy xudolarga ishonishi barchaga ma'lum. Ular barcha bayramlarda turlicha qizil qog'ozga yozilgan tilakalarni eshiklariga, xona

<sup>1</sup> Степанов, Ю. С. Константы: Словарь русской культуры – М. : Академиче-ский проект, 2004. 42с- 992с

devorlariga ilib qo'yishadi. Ana shunday tabriklar asosan o'z ichiga frazeologik birliklarni oladi. Ilmiy ishimiz doirasida “baxt” konsepti milliy tafakkurni shakllantirish va tashuvchilar sifatida olamning lisoniy tasvirini yaratishda ishtirok etuvchi kalit so'zlardan biri ekaniga amin bo'ldik. Bunday konseptlar yig'indisi esa har qanday millat madaniyatini tashkil etadi. Frazeologik birliklar T.M. Gurevichning fikriga ko'ra har doim aktualdir: “ham bir necha asrluk tarixni o'z ichiga olgan, ham yangi paydo bo'lgan hozirgi zamonaviy tilda qo'llaniladigan frazeologik birliklarni o'rganish nafaqat sinxron tadqiqot uchun qo'l keladi, balki tadqiqotchiga milliy madaniyatning ayrim konsept mazmunidagi o'zgarishlarni kuzatishga ham imkonini beradi...<sup>2</sup>”. Tilning paremiologik fondi lingvomadaniy tushunchalarni o'rganishning mahsuldor manbalaridan biridir. Maqol va matallar tarkibiy-semantik jihatdan tashkil etilgan tizimdir. Ular ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar uchun ahamiyatli bo'lgan ong va madaniyat konstantalarini o'rnatadi, ular atrofidagi dunyoni baholash tizimini belgilaydi va asosiy tushunchalarni aniqlash va tahlil qilish imkonini beradigan birliklardir. Demak frazeologik birliklar xalqning turmush-tarxidagi, mental ongidagi o'zgarishlarni ham ko'rsatib beradi.

Baxt va baxtsizlik haqidagi g'oyalar inson dunyoqarashining o'ziga xos xususiyati bo'lganligi sababli, ularni o'rganish antropotsentrik paradigma doirasida rivojlanadigan ilmiy fanlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. “Baxt” konsepti o'z-o'zidan “baxtsizlik” bilan bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Baxt va baxtsizlik har bir shaxs tomonidan baholanadigan obyektidir. Asosan, baxtsizlik og'ir, achchiq, jiddiy holat sifatida qabul qilinsa, baxtni oson, shirin kabi tushuniladi.

Quyida keltirilgan frazeologik birliklarda<sup>3</sup>[lug'at] 福 *fú* iyeroglifi baxtni ifodalasa, u bilan bir qatorda baxtsizlik 祸 *huò* ya'ni falokat iyeroglifi kelganini ko'rish mumkin:

避祸就福 *bì huò jiù fú* falokatdan qochish va baxtni izlashga ishora qiladi, baxtsizlikdan qochib, baxtga intilish. Mazkur frazeologik birlikka sinonim 避祸求福 *bì huò qiú fú* va 避祸趋福 *bì huò qū fú* kabilarni uchratdik. Ular barchasi falokatdan qochish, baxtga intilish kabi ma'nolarni ifodalaydi.

福善祸淫 *fú shàn huò yín* yaxshiga baxt, yovuzga dard. Demak, osmon yaxshilik qilganlarga baxt va saodat, yomonlik qilganlarga esa baxtsizlik va dard yuvoradi ma'nosini ifodalamoqda. Misolda ko'radigan bo'lsak, “天道福善祸淫... 肆台(yì)小子将天命明威不敢赦”. Osmon baxtni yaxshilikka, baxtsizlikni yomonga yuboradi; shuning uchun sizga osmon mandatining buyukligini ko'rsatishim kerak va men sizni kechirishga jur'at etolmayman.

福无双至 *fú wú shuāng zhì* omad har doim ham kelavermaydi. Demak, omad, omadli vaziyatlar ketma-ket kelmasligini anglatadi. Mazkur frazeologik birlikni to'liq ko'rinishi quyidagicha: 福无双至, 祸不单行 *fú wú shuāng zhì, huò bù dān xíng*, 福不重至, 祸必重来 *fú bù chóng zhì, huò bì chóng lái* baxt takrorlanmaydi, baxtsizlik esa yolg'iz yurmaydi.

福倚祸伏 *fú yǐ huò fú* baxt bilan baxtsizlikning orasi bir qadam. Baxt va baxtsizlik sabab va natijaga aylanib, bir-birini o'rniga almashib kelishi mumkin. 祸兮福所倚, 福兮祸所伏 *huò xī fú suǒ yǐ, fú xī huò suǒ fú*. Mazkur misol yuqoridagi baxt va baxtsizlik bir-birini taqozo qiladi degan fikrimizni isboti sifatida ko'rish mumkin. 祸福无常 *huò fú wú cháng* baxt va baxtsizlikni oldindan aytib bo'lmaydi

<sup>2</sup> Гуревич Т.М. Человек в японском лингвокультурном пространстве. – Монография. – М.: МГИМО(У) России, 2005. – С. 25.

<sup>3</sup> <https://bkrs.info/>

**祸福无门** *huò fú wú mén* inson o‘z baxtini o‘zi yaratadi, so‘zma-so‘z baxtsizlik va baxtning eshiklari yo‘q (taxminan ma‘nosida: inson o‘z taqdirini yozuvchisi, baxti yoki baxtsizligining asosiy sababchisi). Yana bir misol **祸福同门** *huò fú tóng mén* baxt va falokat bir eshikdan keladi. Bu yerda yuqoridagi misolga qarma-qarshi “bir eshik” deb qo‘llanilgan. Inson hamisha baxtga intilishi va unga erishish o‘z qo‘lida ekani, dunyoga qanday boqishi bilan bog‘liq, quyidagi misol ham ushbu fikrga misol bo‘la oladi: **祸福惟人** *huò fú wéi rén*, **祸福由人** *huò fú yóu rén* baxt ham, falokat ham inson o‘z harakatiga bog‘liq. Yuqoridagi frazeologik birliklarda insonning hayoti, taqdiri o‘z qo‘lida ekanligiga ishora qiladi. Psixolog O. Kaga<sup>4</sup> ham baxtni “tumanli”, “noaniq”, “ko‘p tarmoqli”, “o‘zgaruvchan”, “mobil” deb ataydi va shu bilan birga quyidagi fikrni aytib o‘tadi: “Agar inson hozir o‘zini baxtli deb hisoblasa, u baxtli. Agar u o‘zini baxtsiz deb hisoblasa, u baxtsiz bo‘ladi.” Demak, baxt ma‘lum shaxsga, uning o‘zini baholashiga bog‘liq bo‘lib, sub’yektiv fikrdir.

**福相生** *huò fú xiàng sheng* baxtsizlik va baxt bir-birini tug‘diradi; baxt va baxtsizlik bir-biriga bog‘liq. Xitoy tili nuqtai nazaridan aynan yuqoridagi tarif baxt bilan bog‘liq frazeologik birliklarda baxtsizlik iyeroglifi ham kelishini ko‘rsatadi. Baxtni bilish uchun, uni qadriga yetishi uchun inson baxtsizlik nima ekanini ham bilishi kerak. Xitoyliklar mental ongida, olamning lisoniy manzarasida baxt iyeroglifi bilan bog‘liq eng soddada tushuncha desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunga yana bir necha misollarni ko‘rsatib o‘tish mumkin: **人生祸福** *rénshēng huò fú*, **福祸相依** *fú huò xiāngyī*, **祸福相依** *huò fú xiàng yī*, **祸福相倚** *huò fú xiàng yǐ*, **福生有基**, **祸生有胎** *fúshēng yǒu jī*, **huò shēng yǒu tāi** mazkur frazeologik birliklar umumiy ma‘nosi baxt va baxtsizlik yonma-yon yurishiga ishora qiladi.

**祸绝福连** *huò jué fú lián* baxtsizlik ketib, baxt va omadning birin-ketin davom etishini anglatadi. **祸为福先** *huò wéi fú xiān* qiyinchilikdan so‘ng, albatta yengillik keladi. Mazkur frazeologik birlik asosan qiyin vaziyatda qolgan odamni tinchlantirish uchun qo‘llaniladi. Xitoy xalqi har bir yomonlikdan so‘ng bir yaxshilik kelishiga ishonishadi.

**因祸得福** *yīn huò dé fú* yomonlikdan so‘ng, albatta yaxshilik keladi, har bir falokat ortida yaxshilik bor. **他误了那架后来坠毁的飞机，而因祸得福** *Tā wùle nà jià hòulái zhuìhuǐ de fēijī, ér yīn huò dé fú*. Baxtiga, u halokatga uchragan usha reysdagi samolyotga kechikdi. Mazkur misolda “baxtiga” deb tarjima qililib, yaxshilikka kechga qolgani ifodalangan. Yuqoridagi frazeologik birlikdan bilan bir qatorda bir necha ma‘nolari o‘xshash frazeologik birliklar mavjud: **因祸为福** *yīn huò wéi fú*, **福为祸始** *fú wéi huò shǐ*, **化祸为福** *huà huò wéi fú*, **福为祸先** *fú wéi huò xiān*, **祸为福先** *huò wéi fú xiān*, **转祸为福** *zhuǎn huò wéi fú*, **因祸得福** *yīn huò dé fú*, **祸中有福** *huò zhōng yǒu fú*, **不为福始**, **不为祸先** *bù wéi fú shǐ, bù wéi huò xiān*, **塞翁失马**, **安知非福** *sài wēng shī mǎ, ān zhī fēi fú*, **塞翁失马**, **焉知非福** *sài wēng shī mǎ, yān zhī fēi fú*. Quyidagi frazeologik birliklarning barchasi yomonlik, falokat ortidan yaxshilik, baxt kelishini, baxt baxtsizlikda yashaydi, baxtsizlik esa baxtda yoki barcha falokatlar yaxshilikka bo‘lganini ifodalaydi.

**转祸为福** *zhuǎn huò wéi fú* baxtsizlikni baxtga aylantirish, yomon narsalarni yaxshi narsalarga aylantirishga ishora qiladi yoki baxtsizlikni ham o‘z foydasiga aylantirish; Yana bir ma‘no jihatdan o‘xshash misol: **转灾为福** *zhuǎn zāi wéi fú*.

<sup>4</sup> Kaga O. Фуко: на куни но ко: фуку рон. (Теории счастья в несчастной стране). – Токио, 2010. – С.16-173.

祸福有命 *huò fú yǒu mìng* baxt ham, falokat ham taqdiridan. Qadimgi irimlarda aytilishicha, har bir inson taqdirida baxt va falokat ma'lum miqdorda bo'lishiga ishonishgan va ularning barchasi oldindan belgilab qo'yilgan.

#### XULOSA

Yuqoridagi misollardan kelib chiqan holda quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- Baxt va baxtsizlik (falokat) iyerogliflari uchragan frazeologik birliklarni statik tahlil orqali 4ta katta guruhlariga bo'lish mumkin: 1) baxt va baxtsizlik orasi bir qadam kabi ma'nosida; 2) yaxshiga baxt, yomonga dard kabi ma'nosida; 3) inson o'z baxtini o'zi yaratadi kabi ma'nosida; 4) qiyinchilikdan (baxtsizlikdan) so'ng, albatta yengillik (baxt) keladi kabi ma'nolarni ifodalovchi;
- baxt va baxtsizlik aynan taqdirning leksik-semantik maydoniga kirib, mazkur konseptning muhim bir bo'lagi hisoblanadi;
- frazeologik birliklardagi leksemalardan: ulush (maqollarda ulush qabul qilish - baxt, ulushsiz qolish - baxtsizlik), yulduz, qism, yaxshilik, mehr baxtni anglatib, oldindan belgilash ma'nosini aktuallashtiradi;
- frazeologik birliklardagi leksemalarda: falokat, dard, vaqtni boy berish baxtsizlikni anglatib, kutilmagan hodisa atributini aktuallashtiradi;
- shuningdek, “osmon ne'mati, yuqoridan berilgan” kabi ma'nolarni ko'rish mumkin.

#### ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. 黄全信, 中华五福吉祥图典, 华语教学出版社, – 北京 2003., – С.245.
2. Гуревич Т.М. Человек в японском лингвокультурном пространстве. – Монография. – М.: МГИМО(У) России, 2005. – С. 25.
3. Кага О. Фуко: на куни но ко: фуку рон. (Теории счастья в несчастной
4. стране). – Токио, 2010. – С.16-173.
5. Nasirova, S. A. (2020). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. – Opcion: Revista de Ciencias Humanas y Sociales, 260-273.
6. Степанов, Ю. С. Константы: Словарь русской культуры – М. : Академиче-ский проект, 2004. 42с- 992с.
7. Ошанин И. М. (ред.) Большой китайско-русский словарь.Т. 1-4. М.: Наука, 1983-1984. – С.1062.
8. Зиямухамедов, Д. Т. (2021). КОНЦЕПЦИЯ ОБЩЕСТВА И ЧЕЛОВЕКА В НОВЕЛЛАХ ПУ СУНЛИНА. *Социосфера*, (3), 23-31.
9. Nasirova, S. A., Hashimova, S. A., & Rikhsieva, G. S. (2021). The influence of the political system of china on the formation of social and political terminology. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 10-17.
10. Djafarov, B., Nishanbaeva, A., Mirzakhmedova, K., & Nuriddinov, N. (2021). GRAMMATICAL ADAPTATION OF THE TURKIC LOANWORDS IN PERSIAN (IN THE EXAMPLES OF ADJECTIVE PHRASES). In *Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования* (pp. 102-106).
11. Омонов, К. (2013). Об одном нормативе делового письма в старотюркском языке. *Вестник Челябинского государственного университета*, (23 (314)), 126-130.
12. Khalmurzaeva, N. T. (2020). Peculiarities of intercultural understanding in Uzbek and japanese verbal communication. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1473-1481.

- 
13. Abdullayevna, N. S. (2019). Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии Насирова Саодат Абдуллаевна. *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ*, 3, 384
14. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究:协同和一体化. In 上合组织国家的科学研究:协同和一体化,87,0